

**ALISHER NAVOIYNING “NASOYIMU-L-MUXABBAT” ASARIDA
IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKAGA MANSUB SO’ZLAR**

Avazmetov Kudrat Saidamatovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muxabbat” asarida qo’llangan ijtimoiy-siyosiy leksika tizimli ravishda tahlil qilingan. Asarda uchraydigan ijtimoiy-siyosiy mazmundagi so’z va atamalar mansab va unvonlar, davlat boshqaruvi, diniy-siyosiy lavozimlar hamda ma’muriy-hududiy tushunchalar kabi mavzuy-semantik guruhlariga ajratilgan. Muallif ushbu leksik birliklarning ma’no qirralari, qo’llanilish xususiyatlari hamda tarixiy-ijtimoiy zaminasiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari mumtoz adabiyot tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning shakllanishi va taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Nasoyimu-l-muxabbat”, ijtimoiy-siyosiy leksika, mansab va unvonlar, terminologiya, mumtoz adabiyot.

Аннотация. В статье проводится системный анализ общественно-политической лексики, использованной в произведении Алишера Навои «Насойиму-л-мухаббат». Общественно-политические слова и термины классифицируются по тематико-семантическим группам, таким как названия должностей и званий, государственное управление, религиозно-политические чины и административно-территориальные понятия. Особое внимание уделяется семантическим особенностям, функциональному употреблению и историко-социальному контексту данных лексических единиц. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию формирования и развития общественно-политической терминологии в языке классической узбекской литературы.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Насойиму-л-мухаббат», общественно-политическая лексика, должности и звания, терминология, классическая литература.

Abstract. This article presents a systematic analysis of socio-political vocabulary used in Alisher Navoi's work "Nasoyimu-l-Muhabbat". The socio-political lexical units found in the text are classified into thematic-semantic groups, including titles and ranks, state administration, religious and political positions, and administrative-territorial concepts. Special attention is paid to the semantic features, functional usage, and historical-social background of these lexical items. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the formation and development of socio-political terminology in the language of classical Uzbek literature.

Key words: Alisher Navoi, Nasoyimu-l-Muhabbat, socio-political vocabulary, titles and ranks, terminology, classical literature.

Asardagi ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub soʻzlar oʻz navbatida muayyan ichki guruhlarga ajraladi. Ularni quyidagicha belgilash mumkin: a) mansab va unvonni anglatuvchi soʻzlar. Bu mavzu tilshunosligimizda maxsus tadqiq qilingan boʻlishiga qaramay, har bir davrda amalda boʻlgan mansab va lavozim, unvonlar xususida nisbatan toʻlaroq tasavvur hosil qilishi uchun oʻsha davrda yaratilgan tarixiy asarlar materiallarini bir-biriga qiyoslash katta yordam beradi. Shuning uchun ham mavzuga doir adabiyotlarda mansab va unvon nomlari mavjud materiallarga asoslanib, bir-biridan farqlangan holda kichik guruhlarga ajratilgan. Masalan, N.A. Baskakov Xiva xonligidagi mansab va unvon nomlarini yuqori va maʼmuriy hukumat egalarining mansab va unvonlari, Xiva xonligidagi saroy amaldorlari unvonlari, harbiy mansab va unvonlar, diniy mansab va unvonlar, sud tizimi nomenklaturasi, soliq toʻlovchi tabaqalar mansab va unvonlari tarzda 6 guruhga ajratib tahlil qiladi. XI-XIV asr oʻzbek yozma yodgorliklarida ijtimoiy-siyosiy terminlarni tadqiq qilgan H.Dadaboyev oʻz tasnifida tadqiqot obyektining

kengligi bois ushbu mavzuiy-semantik tizimni bir necha kichik guruhlariga ajratgan. Masalan, birgina davlat apparati mansablari nomlarini saroy xizmatidagi shaxslar unvonlari, ma'muriy boshqaruv xodimlarining unvon nomlari, viloyat va shahar boshqaruvida mas'ul shaxslar unvon nomlari kabi kichik guruhlariga ajratgan. Olim shu tarzda ekspluatator sinf vakillarini ifodalovchi terminlarni ham bir necha guruhga bo'ladi. Z. Xolmanova ham ijtimoiy-siyosiy tushunchani ifodalovchi semantik maydon doirasida mansab-martaba bildiruvchi semantik guruhni 6 ta kichik guruhga bo'lib o'rganadi.

Asar materiallari asosida mansab va lavozim nomlarini o'z navbatida quyidagi kichik guruhlariga ajratish mumkin: Mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi so'zlar. Mumtoz o'zbek adiblari, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tilida "monarx" tushunchasini ifodalovchi bir qancha so'zlar mavjud. Ular asar yozilgan yoki voqealari bayon qilinayotgan davr, asar janri (badiiy, tarixiy, memuar) kabi jihatlarni e'tiborga olgan holda bir-biriga ma'nodosh sifatida, ayrim o'rinlarda esa muayyan ma'no farqlari bilan ishlatilgan. Xususan, asarda bu tushunchani ifodalovchi bir necha so'z ishlatilgan.

Masalan, podshoh so'zining asarda quyidagi ma'no qirralari ko'zga tashlanadi: 1. Podshoh, mamlakatning mutloq hukmdori: Shayx Abu Said ul darvesh sari boqib dediki, har kim tilasaki, ikki podshohni bir yerda bir vaqtda bir taxtda ko'rgay, ko'rsun! (217). 2. Mutloq murodiga erishgan, ehtiyojlardan xoli inson: Ul dedi: sanga, bir vasiyat qilaykim, ham bu dunyoda podshoh bo'lg'aysen va ham ul dunyoda. (26). 3. Haq Ta'oloning sifati. Bu ma'no asmoyi husnodan biri al-Malik sifati bilan muvofiq keladi: Podshohlar podshohisen, bandalig'ingda qaridim. Meni ozod qil! (201). Asarda shahanshoh so'zi asl ijtimoiy-siyosiy mazmunida emas, o'z davri va davrasining peshvosi, tan olingan shaxs mazmunida ishlatilgan: Ani ulamoning shahanshohi der ermishlar va judu shijoatda zamonining yagonasi ermish. (26). Alisher Navoiy asarlarida ushbu mazmunda "malik" so'zi ham mavjud bo'lib, asarda uning ko'plik shakli muluk (podshohlar, shohlar) ishlatilgan: (Ibrohim Adham) mulukdin erkani xud mashhurdur. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. (37-38). Alisher Navoiy asarlarida ushbu guruhga mansub shoh

so'zining ma'no qirralari ancha keng bo'lib, xususan, tasavvufiy mazmundagi baytlarda uning darvish tushunchasiga zid xos mazmun ifodalagan. Masalan, shoh yurub olam ochar, darvish olamdin qochar yoki shohning munglug' mushavvashlar bila ne nisbati kabi. Asarda esa bu so'z Shoh Shujo'ning nisbasi sifatida ishlatilgan. Asarda shoh deganda ayni shu mutasavvif nazarda tutiladi: Shoh Shujo' Kirmoniy... Ikkinchi tabaqadindur, muluk avlodidindur. (63). Ko'rinadiki, Shoh Shujo' shohlar avlodidan bo'lgani uchun shunday nisba olgan. Tasavvufda keyinchalik xalq o'rtasida mashhur qalandarlar, darvishlar shunday atala boshlagan. Masalan, Shoh Mashrab. Bunday holatni Ahmad Yassaviyning xalq orasida sultonim deb e'zozlanishida ko'ramiz. Tasavvuf ahliga, xususan, tariqat asoschilariga bunday ehtirom ko'rsatish ancha qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan, bu so'zlardan so'ngra Shayx Muayyad dediki, men ham ul sultonning (Jaloliddin Rumiyning) niyozmandlaridinmen. (328). Yoki asardagi Nosir Xusrav zikrida o'qiymiz: Ko'histon ahli boshtin ayoq oning murididurlar va Shoh Nosir Xusrav bila ta'bir qilurlar. (470). Asarda "podshoh", "hukmdor" mazmunida sulton so'zi va uning siniq ko'plik shakli salotin ham ishlatilgan: Shayx dedi: Ey asr sultoni va ey vujud sarvari, to'ning bog'in yeshki, yetti ko'k va yerni ul band bila bog'lading! (218); olam salotini yuzlarin alarning ostonalarig'a surtubdurlar. (21). Sulton سلطان so'zi tarixan turli davrlarda turlicha ma'no kasb etib kelgan: 1. X asrlarda musulmon mamlakatlari hukmdori. XI asrda saljuqiylardan boshlab bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya bo'lgan ba'zi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Bruney sultoni. 2. Mo'g'ul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar sulton deb yuritilgan. Alisher Navoiy asarlarida bu so'z hukmdor mazmunini umumlashtirib ifodalovchi so'zlardan biri hisoblanadi. Masalan,

Shahliq etgandin ne hosil faqr sirrin bilmayin,
Hech kim mulki baqo sultoni bo'lg'onmu ekin,
Foniyi mahz o'lmayin sulton Abulg'ozi bikin,
Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,

Oni kasb etmak fano bo'lmay, ne imkon oqibat?

Xalifa so'zi xususida mavjud adabiyotlarda mufassal ma'lumot berilgan. Ularni umumlashtirganda xalifa **خليفة** dastlab payg'ambar alayhissalomdan keyin islom davlatini boshqargan shaxslar, umaviylar, abbosiylar, usmoniylar kabi suloladan chiqqan hukmdorlar hamda lug'aviy ma'nosi (yordamchi, izidan boruvchi)ga muvofiq tariqat pirlari, diniy maktab muallimlarining yaqin kishisi, yetuk shogirdlari mazmunini kasb etganini ko'ramiz. Asarda bu so'z ijtimoiy-siyosiy termin – xalifa hamda o'rinbosar, biror ishni davom qildiruvchi shaxs ma'nolarida ishlatilgan: Xalifag'a yetkurdilar, buyurdikim, ani hozir qildilar, to ta'zir qilg'aylar. (376); Chun atosig'a xalafu xalifa va qoimi maqom erdi. (420).

Hokim **حاكم**. Ushbu so'z asarda 1) viloyat, ma'muriy hudud hokimi: Hasaniy shurafodin erdi va ul viloyat hokimi erdi (227); 2) mamlakat hukmdori: andin so'ngra ani Mag'ribda hokim qildilar (163) ma'nolarida ishlatilgan.

b) turli darajadagi mansab va lavozim nomlari. Vazir so'zining o'zagini mas'uliyat olmoq, yuk ko'tarmoq ma'nosidagi vazara **وَزَّرَ** fe'li tashkil qiladi. Islom davlatlarida ushbu mansabning yuzaga kelishi va turli davrlardagi vazifalari adabiyotlarda mufassal yoritilgan. Urarg'a ilig qo'targan kishining iligi shol bo'ldi va buyurg'an vazirg'a haybat mustavliy bo'ldi. (146). Uning siniq ko'plik shakli vuzarodir: Vuzarodin biriga Shayx bila irodate voqe' erdi. (179).

v) diniy-siyosiy rutba va mansablarni ifodalovchi so'zlar. Qozi **قاضى** musulmon jamoasidagi sudb'ya. Qozilar din, oila, meros va oilaviy, jinoiy ishlar masalasiga oid hukmlar chiqarganlar. Qozi Abu Amr Bistomiy Hiriga keldi va Xoja Yahyoning majlisig'a bordi. (230). Asarda qazo so'zi “qozilik” mazmunida ham ishlatilgan: bizing mulkda andoq kishi borkim, sharqdin g'arbg'acha mulk qazosin anga bersalar, ul qabul qilmas ermish. (146).

Shayx ul-islom **شيخ الإسلام** – oliy ruhoniy unvoni. Asarda shayx ul-islom deyilganda Xoja Abdulloh Ansoriy nazarda tutilishini muallifning o'zi ta'kidlaydi: Mutolaa ahlig'a ma'lum bo'lsunki, “Nafahot” dasturi bila bu kitobda “shayx ul-islom” har yerdakim mazkur bo'lur, ondin maqsud Hazrat Xoja Abdulloh Ansoriy qaddassa sirrohudur. (220).

Mufti: مفتى – diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy jihatdan o'rganuvchi, fatvo beruvchi: Imom Abu Alik, zamonning muftisidir, javob bitibdur. (203).

g) ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi so'zlar. Mulk – mamlakat: Asli Yaman mulkidindur. (62). Mamlakat – mamlakat, davlat: ammo mamlakat vasi'dur. (58). Uning arabcha sinik ko'pligi sifatida mamolik so'zi ishlatilgan. Quyida keltiriladigan parcha mazmunidan bu o'rinda ushbu so'z muayyan ma'noda – “islom mamlakatlari” mazmunida qo'llanilgan: mamolikda hodisa turibdur, to ma'lum qilmag'aymenki, nedur, ichmagaymen. (119). Bilod (birligi balda yoki balad – 1. shahar; 2. mamlakat) – mamlakatlar, davlatlar. Ayrim hollarda birlik mazmuni kasb etib, “mamlakat” tushunchasini anglatadi: Aning Shayxi Ajam bilodida, anga deb erdiki, bot bo'lg'ayki, Misr bilodida qutb bila muloqot qilg'aysen. (407).

Shahr so'zini asardagi matn mazmunidan “shahar” yoki “mamlakat” mazmunida tushunish mumkin. Bu hol mazkur so'z o'zining shakllanish jarayonidagi ilk semasini keyingi davrlarda ham muayyan darajada saqlab qolganidan darak beradi: Bir shahr xalqi shohdin gadog'acha ul sababdin motame (motamiy – “motamda” tarzida o'qish to'g'ri bo'ladi) erdilar. (20). Eronshunoslar fikricha, shahr so'zi eroniy tillarning janubi-g'arbiy guruhiga mansub shathr (shahar) so'zi bilan o'zakdoshdur. Shahr شهر pahlaviyda shahr (mulk, viloyat), shathr (jahon, olam) qadimiy xshahr o'zagidan hosil bo'lgan. “Avesto”da bu so'z xshathua shaklida uchraydi. O'rta fors tilida shahr. Qadimgi hind tilidagi kshatra (shahar) so'zi xshi –shohlik qilmoq, farmon bermoq, qudratli bo'lmoq o'zagidan hosil bo'lgan. Demak, asarda shahr so'zi mazmun taqazosiga ko'ra tor ma'noda “poytaxt” mazmunini ham anglatishi o'zining tarixiy ildizlariga egadir: oning shahr va viloyatig'a kirolimu, yo'qmu? (215). Parchada qo'llanilgan viloyat so'zi ham ushbu mavzuviy-semantik guruhga mansub bo'lib, eski o'zbek tilidagi asarlarda, shuningdek, fors xronikalarida uning “mamlakat” yoki “mamlakatning yirik ma'muriy-hududiy bo'lagi” mazmunlaridan qay birini anglatayotganini faqat o'zi ishtirok etayotgan matn mazmunigina belgilaydi. Jumladan, yuqoridagi parcha uning “mamlakat” mazmuni ustivor bo'lsa, quyidagi parchada “mamlakatning yirik

ma'muriy-hududiy bo'lagi" mazmuni yaqqol ko'zga tashlanadi: Chag'oniyon viloyatig'a mutavajjih bo'ldum. (273).

Asarda ishlatilgan ushbu guruh so'zlaridan biri kent "yirik aholi punkti" ma'nosiga ega: Revartundakim, Buxoro kentlaridindur, sokin bo'ldum. (261).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Асарлар. Уч томлик. Учинчи том. Нашрга тайёрловчилар Ойбек ва П.Шамсиев. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б
4. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
5. Рамазонов Н. "Насойим ул-муҳаббат" ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. №1.
6. Ўразбоев А. Огаҳийнинг "Риёз уд-давля" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 75
7. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985.